

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Hamshiralik ishi fani talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Hamshiralik ishi

1. Hamshiralik ishiga kirish. Hamshiralik ishi asoslari;
2. Kundalik hayot faoliyatida hamshiralik parvarishi;
3. Salomatlik darajasini baholash va hamshiralik jarayoni;
4. Infeksiyaning oldini olishga qaratilgan hamshiralik parvarishi;
5. Tashxislash va davolashda bemorlarga hamshiralik parvarishi;
6. Hamshiralik ishi etikasi va hamshiralik ishida boshqaruv;
7. Rentgenologik va endoskopik tekshiruvlar,ularda tibbiyot hamshirasining qatnashuvi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Hamshiralik ishiga kirish. Hamshiralik ishi asoslari.	Hamshiralik ishining ta’rifi, hamshiralik ishining va rivojlanishini, hamshiralik ishining asoschilarining kimligi va ularning faoliyatini biladi. O‘zbekistonda hamshiralik ishining rivojlanishi tarixini, O‘zbekistonda F.Nayingeyl medaliga sazovor bo‘lgan hamshiralarni, Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti, Qizil Yarim Oy tashkilotlari, Xalqaro va O‘zbekiston hamshiralar assotsiatsiyasi haqida tushuncha va asosiy vazifalarini biladi. Salomatlik haqida tushuncha va salomatlikka ta’sir etuvchi omillarni tushunadi. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilishni, D.Orem bo‘yicha o‘z-o‘zini parvarish qilish haqida tushunchalarni biladi. O‘z-o‘zini parvarish qilishda hamshiraning tutgan o‘rni, V.Xenderson bo‘yicha asosiy ehtiyojlar va hamshiralik parvarishi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlari bilan ishlay oladi. DPM da yuritiladigan tibbiy hujjatlarni to‘ldirishni, ularni yuritishni biladi.	4 ta
2	Kundalik hayot faoliyatida hamshiralik parvarishi.	Davolash profilaktika muassasalari (DPM)ning asosiy turlari yo‘nalishlari va hamshiralarning ish faoliyatini biladi. QVP va OP da patronaj olib borish qoidalarini biladi. Salomatlikka ta’sir etuvchi asosiy omillarni biladi. Asosiy va maxsus tana holatlarini, tana holatini o‘zgartirmaslik oqibatida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni, transportirovka usullarini, tana holatini o‘zgartirishda bemorga muolaja o‘tkazish haqida tushuncha bera oladi va farqlay oladi, bemorni asosiy holatlarda yotqizishda shart-sharoit yaratish va amalga oshirish ishlarini biladi. Bemor tanasini Fauller, Sims va Trendelburg holatiga keltirish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Yotoq yaralarni baholashda (Norton, Breyden va Vaterlou) shkalalaridan to‘g‘ri foydalanish va parvarish qilishni biladi. O‘rin bosh oqliklarni tayyorlay oladi, oqliklar va ichki kiyimni almashtirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni	9 ta

		tayyorlay oladi. Bemorning holatini inobatga olgan xolda oqliklar va ichki kiyimni almashtirish usullarini, bemorning ovqat iste'mol qilishning ahamiyati, bemorni ovqatlantirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlashni, bemorni ovqatlantirishda kerak bo'lgan hujjatlarni to'ldirishni (porsionnik va taomnoma) biladi. Bemor mustaqil ravishda ovqatlana olmaydigan vaziyatda ko'rsatiladigan yordam haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Uyqu va dam olishning odam organizmidagi ahamiyatini biladi. Ovqatlantirish va fiziologik chiqaruvlarda parvarish qilish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.	
3	Salomatlik darajasini baholash va hamshiralik jarayoni.	Salomatlik darajasini va hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni baholashni, teri, limfa, sezish, harakat funksiyalari va skelet tizimini baholashni, nafas a'zolari tizimini tuzilishi va funksiyasini, qon aylanish a'zolari tizimi tuzilishi va funksiyasini, hazm a'zolari tizimini baholashni biladi. Hamshiralik jarayoni haqida tushunchaga ega bo'ladi, hamshiralik jarayonining ahamiyati va maqsadini, hamshiralik jarayoni bosqichlarini, muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini o'tkazish rejasini tuza oladi. Muammoli masalani muhokama qilish va yozuvlarni qayd qilish usullarini, muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini yuritishni, tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish, amalga oshirish, natijani baholash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	8 ta
4	Infeksiyaning oldini olishga qaratilgan hamshiralik parvarishi.	Infeksiya haqida tushuncha, infeksiyaning yuqish yo'llarini, kasalxona ichki infeksiyasi haqida tushunchani, davolash va profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo'yicha amaldagi asosiy buyruqlarni, dezinfeksiya va sterilizatsiya haqida tushunchalarni, shifoxona ichki infeksiyaga qarshi o'tkaziladigan chora tadbirlar, kasalxonadagi xonalar va asbob-anjomlarning sanitariya nazorati, muolaja xonasida yuqishning oldini olish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	3 ta

5	Tashxislash va davolashda bemorlarga hamshiralik parvarishi.	<p>Tashxislash va davolanishning ahamiyatini, tashxislash va davolanishda hamshiraning rolini, qusish turlari va sabablarini, me'da-ichak yo'llari buzilishlarida kuzatiladigan simptomlarni biladi va aniqlash olish ko'nikmalariga ega, xuqna o'tkazishning maqsadi, turlari, xuqna va gaz chiqaruvchi naychani qo'llash uchun ko'rsatma va moneliklarni tahlil qila oladi. Qusayotgan bemorlarga yordam berish uchun kerakli jihozlarni tayyorlash va bemorga qulay sharoit yarata oladi.</p> <p>Siydik ajralish mexanizmi va siydik ajralishi funksiyasining buzilishi, siydik qopini kateterlash maqsadini, turlari, ko'rsatma va moneliklarni, siydik ajralishi muammolarida bemorning siydik qopini kateterlashni, dori moddalar bilan davolash faoliyatini bilishi, dori moddalarini yuborishda hamshiraning va tibbiy mutaxassislarining mas'uliyatlari va huquqlarini, dori moddalarini nazorat qila oladi. Inglyatsiya va ajralmalarni so'rib olishda bemorga hamshiralik parvarishini amalga oshira oladi. Fizioterapiyaning inson organizmiga ta'sirini biladi. Klinik tekshiruvlarda bemorga hamshiralik parvarishini ko'rsata oladi. Shoshilinch holatlarda bemorlarga hamshiralik parvarishini ko'rsata oladi.</p>	12 ta
6	Hamshiralik ishi etikasi va hamshiralik ishida boshqaruv.	<p>Hamshiralik ishi etikasi, ahloqiy etika va tamoyillariga asoslangan etika, Hamshiralik etikasi kodeksi, Hamshiralik ishida uchraydigan etika muammolari va ularni yechish yo'llarini biladi. Shifoxonada boshqaruv ishini tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.</p>	2 ta
7	Rentgenologik va endoskopik tekshiruvlar, ular da tibbiyot hamshirasining qatnashuvi	<p>Bemorlarni bronxogarafiyaga tayyorlash, bemorni me'daning rengenologik tekshiruviga tayyorlash, bemorni yo'g'on ichakning rentgenologik tekshiruviga tayyorlash, bemorni o't pufagi va o't yo'llarining rentgenologik tekshiruvga tayyorlash, bemorni siydik chiqarish tizimining rentgenologik tekshiruviga tayyorlash, bronxlarni endoskopik tekshiruvga va gastroduodenoskopiyaga tayyorlash, urologik endoskopiyaga bemorlarni tayyorlash amaliyotlarini bajara oladi;</p>	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qilish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hamshiralik ishi asoslari. K.O'. Zokirova, D.O'. To'xtamatova, S.A. Mirzaboyeva. Toshkent-Ilm Ziyosiyoti-2016
2. Hamshiralik ishi asoslari. Q.S. Inomov. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2007.
3. "Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari" Fozilbekova M.A., Nurmatova N.A., - T-O'qituvchi, 2002.
4. "Hamshiralik ish" Umarova T.I., Qayumova M.A., Ibrohimova M.Q., T., Zarqalam, 2005.
5. "Normal anatomiya va fiziologiya". Ziyamutdinova G.X., Axmedov Sh.A., T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2009.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*